E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

O‘ZBEK TILIDA SO‘Z TURKUMLARI TRANSPOZITSIYASINING O`ZIGA XOSLIGI

Shodiyeva Gulrux Nazir qizi
Farg`ona davlat universiteti ,ingliz tili kafedrasi o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola o`zbek tilida so`z turkumlari transpozitsiyasining ayrim jihatlarini muhokama etishga bag`ishlanadi. Maqolada sohaga oid ilmiy qarashlar hamda misollar yordamida tahlil olib boriladi.
Kalit so‘zlar: So`z turkumlari, o`zbek tili, transpozitsiya, filologiya, morfologiya.

KIRISH

Bugungi kunda oliy filologik ta’lim oldiga o‘zbek tili va adabiyotining o‘ziga xos betakror xususiyatlari, tarixiy taraqqiyoti, uning bugungi holati va istiqboli bilan bog’liq masalalarni chuqur o‘rganish, bu borada olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari samaradorligini kuchaytirish, ta’lim-tarbiya tizimining barcha bo‘g’inlarida o‘zbek tili va adabiyoti fanini o‘qitishning hamda ushbu soha bo‘yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlashning sifatini tubdan oshirish vazifasi qo‘yilgan bo‘lib, bu vazifaning a’lo darajada amalga oshirilishi ta’lim beruvchiga ham, ta’lim oluvchiga ham, ta’lim vositasiga ham yangi-yangi talablarni qo‘ymoqda.

ASOSIY QISM

So‘zlarni turkumlarga ajratishda quyidagi uch jihat e’tiborga olinadi:[1]

1) So‘zning atash (lug‘aviy) ma’no ifodalashi yoki ifodalamasligi va biror so‘roqqa javob bo‘lishi yoki bo‘lmasligi;

2) So‘zning ma’lum grammatik shakllarga ega yoki ega emasligi;

3) So‘zning gapda sintaktik vazifa bajara olish yoki olmasligi.

Mazkur xususiyatlarga ko‘ra so‘z turkumlari yuqoridagidek uch guruhga bo‘linadi.

Ma’lum bir so‘roqqa javob bo‘lib, atash (lug‘aviy) ma’noga ega bo‘lgan va biror gap bo‘lagi vazifasida keladigan so‘zlar mustaqil so‘zlar sanaladi: **fe’l, ot, sifat, son, olmosh va ravishlar** mustaqil so‘zlardir.

Ma’lum so‘roqqa javob bermaydigan, atash ma’nosiga ega bo‘lmay, faqat grammatik ma’no ifodalaydigan, gapda yakka o‘zi sintaktik vazifa bajara olmaydigan so‘zlar yordamchi so‘zlar hisoblanad: **ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama** yordamchi so‘zlardir. Yordamchi so‘zlar so‘z va gaplarni bog‘lash, shuningdek, ularning ustiga qo‘shimcha ma’no yuklash kabi vazifalarni bajaradi.

Mustaqil so‘zlarga ham, yordamchi so‘zlarga ham kirmaydigan, ularning har ikkisiga xos bo‘lgan belgilarni o‘zida ma’lum darajada umumlashtirib aks ettiradigan oraliqdagi so‘zlar alohida olingan so‘zlar sanaladi: undov, taqlid va modal so‘zlar alohida olingan so‘zlardir.

So‘zlarni yirik alohida grammatik guruhlarga ajratish yordamida so‘z turkumlari aniqlangan. So‘zlar grammatik jihatdan leksemalar yoki so‘z shakllari sifatida qarama-qarshi qo‘yiladi.

So‘zlarni grammatik jihatdan leksemalar sifatida qarama-qarshi qo‘yilganda, ularni tasnifiy yoki leksik-grammatik kategoriyalar sifatida qaraladi. Biroq so‘zlarni so‘z shakllari sifatida qarama-qarshi qo‘yilganda, ulam ing so‘z o‘zgartimvchi yoki shakl yasovchi kategoriyalari aniqlanadi. Tasnifiy kategoriyalarga so‘z turkumlari kirsa, shakl yasovchi kategoriyalarga son, kelishik, egalik kategoriyalari kiradi. Gram m atik kategoriya na faqat tasnifiy, balki shakl yasovchi kategoriya sifatida grammatik ma’no bilan grammatik shaklni birga mujassam etadi.

So‘z turkumlari o‘zining mazkur tildagi grammatik belgilari bilan ajratiluvchi so‘zlarning yirik guruhlari hisoblanadi. Turli so‘z turkumlariga kiruvchi so‘zlar o ‘zlarining

[1] Pardayev A.B., Qurbonov S.A. Hozirgi o‘zbek tili. O‘quv qo‘llanma. - Samarqand: SamDU nashriyoti, 2021. – 83 b.

paradigmasi yoki sintaktik vazifasi bilan ajralib turadi va bu tasnifning asosini tashkil etadi. So‘z turkumlarini aniqlash tildagi turli birliklami tahlil etishda yordam beradi. So‘zlarni tasnif etish - tildagi lug’atni grammatik jihatdan yirik guruhlarga ajratishdir.[2]

Lug’atdagi so‘zlaming grammatik xususiyatlarini hisobga olib, so‘z turkumlari tasnif etiladi. Biroq tasnifda bir guruhdagi so‘zlarni boshqa guruhga kiritish mumkin emas. Har bir so‘z faqat bir gumhga tegishli bo‘lib, boshqa ikkinchi gumhga yoki bir necha guruhlarga kiritilishi mumkin emas. Agar biror so‘z ikki guruhga (so‘z turkumiga) tegishli bo‘lgan belgilarga ega bo‘lsa, unda uchinchi boshqa bir guruh borligidan darak beradi.

Masalan, ot bilan sifat bir turdagi belgiga ega emas. Lekin sifat va ravish bir xil belgiga ega bo‘lishi mumkin.

Sifat otning belgisi bo‘lsa, ravish harakatning belgisi hisoblanadi. Turli ish-harakatlarni ifodalovchi so‘zlar alohida grammatik guruhni, ya’ni fe’lni tashkil etadi. So‘zlarni tasnif etish leksemalarni leksik-grammatik guruhlarga ajratish natijasidir. Lekin bu tasnif so‘z shakllarining tasnifini o‘z ichiga olmaydi. Shu sababli tasnifga asos qilib olingan belgilaming so‘zning barcha shakllari uchun umumiy yoki uning ayrim shakllariga xos ekanligini hisobga olmoq zarur. Xususan, ko‘pgina tillarda otlar turlanadi, fe’llar esa tuslanadi. Lekin sifatdosh so‘zning bir shakli sifatida bir yo‘la fe’l va sifat belgisiga ega ekanligi natijasida alohida so‘z turkumi ajratilmaydi, balki fe’lning bir shakliga xos paradigma hisoblanadi.

Har bir tasnif grammatik-morfologik, sintaktik va boshqa belgilarga asoslanadi. Masalan, xitoy, koreys, vyetnam, kxmer, tay va boshqa tillarda fe’l va sifat ancha yaqin. Shu sababli xitoy tilida sifat va fe’l alohida predikativ guruhini tashkil etadi va ularning har ikkisi sintaktik jihatdan kesim vazifasini bajaradi va fe’lga tegishli qo‘shimchalarni qabul qiladi. Shu sababli predikativ xitoy tilida alohida so‘z turkumi hisoblanadi.

So‘zlarning guruhlarini ularning turli sintaktik o‘rinlarida qo‘llanishi jihatdan qarash mumkin. Har bir mustaqil so‘zga bo‘ysunuvchi boshqa so‘zlar qo‘llanish o‘rnini izohlaydi.

So‘zlarning belgilari ularning matnda qo‘llanishini chuqur o‘rganish natijasida oydinlashadi. Binobarin, har bir so‘z turkumiga xos so‘zlaming boshqa qaysi guruhdagi so‘zlar bilan birika olishi va ularning qo‘llanish qoidalarini aniqlash zarur. Har bir so‘z turkumi o‘ziga xos semantik belgilari bilan ajralib turadi, lekin so‘z turkumlarining tasnifida semantik belgilar asosiy emas. Chunki shunday so‘zlar borki, ular ikki-uch so‘z turkumiga xos belgilari bilan ajralib turadi.

Masalan, sarg’aygan, yugurish so‘zlari semantik jihatdan alohida jarayonga tegishli bo‘lib, ayni vaqtda grammatik ma’nosi bilan ajralib turadi, ya’ni sarg’aygan so‘zi sifatdosh - narsaning belgisini bildiradi, yugurish - harakat nomini (fe’lning bir shakli) ifodalaydi. So‘z turkumlari morfologik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Xususan, har bir so‘z turkumi o‘ziga xos affikslari va so‘z yasovchi vositalariga egadir.

Fan-texnika keskin rivojlanayotgan, axborot-kommunikatsiya vositalari o‘ta shiddat bilan taraqqiy etayotgan, hayot sur’atlari beqiyos tezlashgan ayni paytda ta’lim oluvchining nafaqat soat sayin yangilanib borayotgan bilimlarni tezlik bilan o‘zlashtiradigan, balki ular ichidan eng mukammalini ajratib oladigan, to‘g’risini izlab topa biladigan, ta’lim beruvchining o‘ta izlanuvchan, yangilikni tez o‘zlashtirib olayotgan, aniq xulosalargagina ishonadigan o‘quvchining talablariga to‘la javob bera oladigan, ta’lim vositasining esa o‘quvchini o‘ziga jalb qiladigan, hatto tajribasiz o‘qituvchining kamchiliklarini ham bartaraf qiladigan darajada mukammal bo‘lishi talab etilmoqda.

Turkiy so‘zlarda so‘z turkumi bir-biridan qat’iy chegaralanmaydi, ular uzviy aloqada bir butunlikda bir sistemani tashkil etadi. Bu sistema qismlari dialektik mantiqdagi (oraliq uchinchi) qonuniyatidan kelib chiqqan holda gibret so‘z sifatida baholanadigan, har ikki siraga xos

[2] https://fayllar.org/a-a-abduazizov.html?page=12 A.A.Abduazizov So‘z turkumlarining tasnifi.

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

semantik-grammatik belgini o‘zida saqlovchi, bir turkumdan ikkinchi turkumga ko‘chish bosqichida turuvchi so‘zlar bilan uzviy bog’lanadi.[3]

Mustaqil so‘zlar orasidagi o‘zaro munosabat va ularning bir-biriga ko‘chishi leksema semasidagi taraqqiyot natijasida yuzaga kelib, ko‘chiishning nutqiy va lisoniylashgan ko‘rinishi farqlanadi. Nutqiy ko‘chishda nutqiy ko‘chma ma’no ifodalaniladi.

Masalan, birni ko‘rib fikr qil, mingni ko‘rib shukur qil gapida son turkumiga mansub (bir) so‘zi vaqtincha ot turkumi vazifasida kelmoqda va bu o‘tkinchi, nutqiy hodisa.

Lisoniy ko‘rinishda so‘z bir turkumdan boshqa turkumga butunlay o‘tib ketadi, transpozitsiya hodisasi yuz beradi. Transpozitsiya deyarli barcha mustaqil so‘z, xatto mustaqil va yordamchi so‘zlar orasida ham kuzatiladi:[4]

1) odam, kishi, inson – otlari (zerikib ketdi odam (men), hayron qolasan kishi (men), dardimni eshitadigan inson (hech kim) topiladi.), (bir) soni (bir kishi (kimdir)), (ba’zi) sifati (ba’zilar (allakimlar) unday deydi, (ba’zilar bunday) olmoshga:

2) (yigit), (qiz), (o‘g’il), (qari), (yer), (xotin), (ko‘r), (issiq-sovuq), (issiq-sovug’idan xabar olmoq) sifatlari, (bordi-keldi), (keldi-ketdi), (oldi-berdi), (ur-yiqit) juft fe’llari, (o‘qish, yozish, o‘tmish, qilmish, qidiruv) harakat nomlari shakllari, (o‘qituvchi), (bog’lovchi),(kuzatuvchi) sifatdoshlari, (uch), (yetti), (yigirma) sonlari otga;

3) (kelajak), (bo‘lajak) sifatdoshlari, (tilla), (kumush), (taxta), (tilla uzuk, asal bola) otlari sifatga.

XULOSA VA MUNOZARA

Demak, aytish mumkinki, so‘z turkumi orasida muntazam aloqa mavjud, bu aloqa til tizimining doimiy o‘zgarish, taraqqiyotidagi jonli jarayon ekanligidan dalolat beradi. Shu boisdan ayrim so‘zlarning qaysi turkumga mansubligi ularning semantik, morfologik va sintaktik xususiyatlarini tegishli tadqiq qilish asosida belgilanishi lozim. Bu tilshinosligimiz oldida turgan dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Pardayev A.B., Qurbonov S.A. Hozirgi o‘zbek tili. O‘quv qo‘llanma. - Samarqand: SamDU nashriyoti, 2021. – 83 b.
2. A.A.Abduazizov So‘z turkumlarining tasnifi. 2017.
3. R.R.Sayfullayeva, B.R.Mengliyev, G.H.Boqiyeva, M.M.Qurbonova, Z.Q.Yunusova, M.Q.Abzalov Hozirgi o‘zbek adabiy tili. O‘quv qo‘llanma. – T. “Fan va texnologiya”, 2009y. – 183-bet
4. Akbarova, L. U. (2023). MAMLAKATLARNING IQTISODIY INTEGRATSIYA JARAYONLARIDAGI ISHTIROKINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI MARKETING TEXNOLOGIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH USULLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(1-2), 84-91.
5. Tojimamatov, I., Usmonova, S., Muhammadmusayeva, M., & Xoldarova, S. (2023). DATA MINING MASALALARI VA ULARNING YECHIMLARI. “TRENDS OF MODERN SCIENCE AND PRACTICE”, 1(2), 60-63.
6. Kimyonazarova, D., Ne'matjonova, D., Ergasheva, B., & Tojimamatov, I. (2023, March). KATTA MA’LUMOTLAR BILAN ISHLASHDA HADOOP ARXITEKTURASI. In Международная конференция академических наук (Vol. 2, No. 3, pp. 96-99).
7. Ne’matjonov, F. F., Jahongirova, J. J., Murodov, B. S., & Tojimamatov, I. N. (2023). CREATE DATA CUBE WITH MS EXCEL. European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 3(03), 77-86.

[3] R.R.Sayfullayeva, B.R.Mengliyev, G.H.Boqiyeva, M.M.Qurbonova, Z.Q.Yunusova, M.Q.Abzalov Hozirgi o‘zbek adabiy tili. O‘quv qo‘llanma. – T. “Fan va texnologiya”, 2009y. – 183-bet

[4] R.R.Sayfullayeva, B.R.Mengliyev, G.H.Boqiyeva, M.M.Qurbonova, Z.Q.Yunusova, M.Q.Abzalov Hozirgi o‘zbek adabiy tili. O‘quv qo‘llanma. – T. “Fan va texnologiya”, 2009y. – 184-bet

8. Tojimamatov, I., & Xurshidbek, R. (2023). KATTA HAJMLI MALUMOTLARNI QAYTA ISHLASHDA QOLLANILAYOTGAN TEXNOLOGIYALAR: NOSQL, MAPREDUCE, HADOOP, ERP, SAP NOSQL TEXNOLOGIYASI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 18(6), 54-60.
9. Artikbayeva, Z. A., & Egamova, G. A. (2022). Boshlang ‘ich sinf ona tili darsliklarida so ‘z birikmasi yuzasidan berilgan bilimlar tahlili. Science and Education, 3(2), 734-739.
10. Sadikov, E. (2022). TIL O ‘QITISHDA PRAGMATIKA MASALALARI: TA’RIFLAR, TANQIDLAR, TAHLILLAR VA TALQINLAR. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 24(24).
11. Sadikov, E. (2022). How pragmatic skills can help improve students’ conversational skills. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 24(24).
12. Tursunovich, S. E. (2022). Classification of compliments as speech acts and their basic characteristics in Uzbek and English languages. Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching, 4, 77-79.
13. Tursunovich, S. E. (2023). Actual Issues of Teaching Pragmatic Competences to English Language Learners in Uzbekistan. Miasto Przyszłości, 31, 148-152.
14. Tursunovich, S. E. (2021). THE ROLE OF PRAGMATICS IN OVERCOMING CHALLENGES OF ACADEMIC WRITING. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 9(11), 247-249.
15. Камалова, М. Н. (2022). ФОРМЫ, МЕТОДЫ И СРЕДСТВА СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА И ПОВЫШЕНИЯ СТАТУСА УЧИТЕЛЯ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ РЕСПУБЛИКИ.
16. Мухитдинова, М. С., & Камалова, М. Н. (2020). Развитие педагогических инноваций в Узбекистане. Наука и образование сегодня, (6-1 (53)), 67-69.
17. Камалова, М. (2020). Наука и образование сегодня№ 6 РАЗВИТИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИННОВАЦИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ. Архив научных исследований, (26).
18. Камалова, М. (2020). Наука и образование сегодня№ 4 РОЛЬ СОВРЕМЕННОГО ПРЕПОДАВАТЕЛЯ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ СТАНОВЛЕНИИ МОЛОДЁЖИ. Архив научных исследований, (26).

19. Jabbarov, N. (2010). What is education. Tashkent. Ma’naviyat.
20. Jabborov, N. (2010). What is enlightenment.

WORDLY
KNOWLEDGE